

APPLICATION OF THE ART OF KALOMI JAMI IN ABDURAZZAQ FAQIRI'S LYRICS

Mehriban Koshnazarova,
UrDU master Akbar Otaboyev
Lecturer at the Academic Lyceum of UrSU

Abstract: At the heart of Uzbek classical literature, whether prose or lyric, is the question of educating the perfect man. The origin of the term "literature" is directly related to the words "etiquette" and "morality". It is no coincidence that the literature of the East, in contrast to the literature of the West, is not focused on the real depiction of life, but on the upbringing of the individual, the priority of the spirit of instruction. From this point of view, the art of kalomi jomi, which we are trying to introduce into the process of analysis, has always been the basis of Uzbek classical literature. This article is about application of the art of kalomi jomi in Abdurazzoq Faqiri's lyrics.

Keywords: word art, literature, lyrics, poetry, prose, the idea of educating the perfect man, art of kalomi jomi.

ABDURAZZOQ FAQIRIY LIRIKASIDA KALOMI JOMI' SAN'ATINING QO'LLANILISHI

Mehribon Qo'shnazarova,
UrDU magistri Akbar Otaboyev
UrDuning akademik litseyi o'qituvchisi

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining – xoh nasriy asar bo'lsin, xoh lirika bo'lsin – tub mag'zida komil insonni tarbiyalash masalasi yotadi. "Adabiyot" atamasining paydo bo'lishi ham bevosita "odob", "axloq" so'zlariga bog'liqdir. Qadimdan Sharq adabiyoti bevosita G'arb adabiyotidan farqli o'laroq, hayotni real tasvirlashga emas, balki shaxs tarbiyasiga, pand-nasihat ruhining ustuvorligiga yo'naltirilgani bejiz emas, albatta. Shu nuqtayi nazardan, biz tahlil jarayoniga olib kirmoqchi bo'layotgan kalomi jomi' san'ati ham azal-azaldan o'zbek mumtoz adabiyotining asosini tashkil etib kelmoqda.

Yoqubjon Is'hoqov ham o'zining "So'z san'ati so'zligi" nomli asarida mazkur san'at haqida so'zlay turib, Hazrat Navoiy ijodi misolida kalomi jomi' san'atining mohiyatini yoritib beradi. *Navoiyning barcha asarlari zahirida muhim falsafiy, ijtimoiy va axloqiy g'oyalar yotadi. Binobarin, kalomi jomi' Navoiy asarlarida mavjud ma'naviy go'zalliklarning eng xarakterlisi deb aytish mumkin. "Nazm ul-javohir"dagi 260 ta ruboiyning barchasi pand-u nasihatdan iborat. Inson tarbiyasi bilan bog'liq hikmatomuz fikrlar faqat lirik she'rlarda emas, balki "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlar tarkibida ko'plab uchraydi*¹.

Mazkur san'atning mazmun-mohiyati haqida Atoullloh Husayniyning adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan "Badoye us-sanoye" nomli ilmiy asarida ham ayrim qaydlar uchraydi.

*Kalomi jomi' andog' kalomdurkim, o'gut, hikmat va zamon-u birodarlardan shikoyat kibi bir nima bila shira-yu zeb berilg'an bo'lur*².

Atoullloh Husayniyning yuqoridagi fikrlariga tayangan holda kalomi jomi' san'atini quyidagicha 4 guruhga ajratib olishimiz mumkin:

O'git (nasihat) bilan bezalgan kalom;

Hikmat bilan bezalgan kalom;

¹ Yoqubjon Is'hoqov. "So'z san'ati so'zligi". – T: "Zarqalam". www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 31

² Atoullloh Husayniy. "Badoye us-sanoye". – T: "G'afur G'ulom". – 1981. – B. 136

Zamona shikoyati bilan bezalgan kalom;

Birodarlar shikoyati bilan bezalgan kalom.

Darhaqiqat, Abdurazzoq Faqiriyning ham lirikasida pand-nasihat ruhi, ibratomuz naqlar, zamondan shikoyat, komil insonni tarbiyalash g'oyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz mazkur maqolamizda Abdurazzoq Faqiriyning kalomi jomi' san'ati asosiga qurilgan lirik asarlarini shartli ravishda quyidagicha to'rt guruhga bo'lib o'rganishni joiz deb bildik.

1. Abdurazzoq Faqiriyning *"Shoir pisandalari"*, *"Shoir ranjida xotir"*, *"Beg'araz"*, *"O'zgaga"*, *"Xarj"*, *"Do'sti jonig"* singari she'rlarida boshdan oyoq pand-nasihat ruhi yetakchilik qiladi. Shoir o'z oldiga qo'ygan diniy-tasavvufiy, axloqiy-ma'naviy o'g'itlari bilan o'quvchini tanishtiradi. O'z g'oyalari ilgar suradi.

2. Abdurazzoq Faqiriyning *"She'r ta'rif haqida"*, *"Muhtoj"*, *"Ey ko'ngil"*, *"G'alat"*, *"Betaklif mehmon"* singari she'rlarida xalq maqollari-yu ulug' mutafakkirlarning falsafiy qarashlariga murojaat qilinganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, shoirning o'zi ham mazkur lirik asarlarida falsafiy fikrlar (aforizmlar) yaratgan.

3. Abdurazzoq Faqiriyning *"Insof yo'qoldi"*, *"Qon yutinglar"*, *"Qissam uzunroq"* singari she'rlarida zamondan shikoyat ohanglari sezilib turadi. Shoir o'zi yashagan davr jamiyatining illatlarini fosh etishni, bu orqali xalqning ko'zini ochishni o'z oldiga dasturiy vazifa sifatida qo'yadi.

4. Abdurazzoq Faqiriyning *"Ey sipohiy"*, *"Eshon"*, *"Ko'ring"*, *"Bahs"* singari she'rlarida zamondoshlardan, jamiyatdagi ayrim badfe'l, ilmsiz, johil insonlar, mutassib dindorlardan norozilik tuyg'usi ko'rinib turadi.

Biz mazkur maqolada shoirning mumtoz adabiyotga xos ayrim janrlardagi, asosan, g'azallaridagi kalomi jomi' san'atiga xos namunalarini keltirib o'tamiz.

Abdurazzoq Faqiriyning *"Shoir pisandalari"* nomli masnaviysida shunday nasihatomuz misralar o'rin olgan:

*Yetishsa bir kuni umring xazona,
Bu sendin so'ngilarg'a bir nishona...
Dog'i yoronlar amrini qildim,
Dili bemorima darmon bildim³.*

Shoir ushbu misralar orqali har bir insonning umri o'tkinchi ekanligi, bir kuni, albatta, *"umr xazona"* bo'lishi, kelgusi avlod o'zidan oldingilarga qarab ibrat olishi zarurligi, tiriklikni g'animat bilib, do'st-u yoronlar xizmatini qilish muhimligini qayta-qayta ta'kidlamog'da. Tasavvuf adabiyotida ham foniy dunyoga aldanib qolmaslik, boqiy dunyo saodati uchun harakat qilish komil insonning yagona maqsadi bo'lishi zarurligi mezon qilib olingan. Oldingi maqolalarimizda ham, mazkur maqolamizda ham biz Abdurazzoq Faqiriyning shunchaki havaskor shoir emas, balki tasavvufiy qarashlarga ega sermahsul ijod egasi ekanligiga alohida urg'u bermoqdami.

Faqiriyning *"Muhtoj"* radifli g'azalida esa Ilohiy Ishq tarannum etiladi:

*Haqiqat do'st shuldur – bo'lsa do'sti jonig'a muhtoj,
Chin oshiq ulki, tun-kun bo'lsa, o'z jononig'a muhtoj⁴.*

Bu o'rinda shoir o'zidan oldingi maslakdoshlariga hamohang tarzda *"Chin oshiq"* sifatlarini keltirgan. Zero, tasavvuf adabiyotida OSHIQ va ZOHID istilohlari maqsad-muddaosi nuqtayi nazaridan bir-biriga zid bo'lgan timsollarni anglatadi. Biz Qur'oni Karimning bir qancha suralari qatori *"Baqara"* surasida Jannat egalari bo'lgan zotlarga beriladigan shirin ne'matlar-u, suluv hurlarning shaydosi bo'lib, kecha-kunduz ibodat ila mashg'ul bo'ladigan, tarkidunyo qiladiganlarni, ya'nikim xomtamalarni (zohidlarni) oshiq deb aytolmaymiz. Oshiq uchun Jannatning ham, undagi go'zal hayot-u, hur-sanamlarning ham qizig'i yo'q. Chin oshiq Alloh o'zining Muqaddas Kalomida va'da qilganidek, Yaratganning jamolini ko'rish ilinjida ibodat qiladi va Allohni sevgani qatori U zotning yaratmaqlarini – odamlarni, hayvonlarni, o'simliklarni, tiriklikni – sevadi. Yuqoridagi misralar hazrat Navoiyning: *"Zohid, senga hur-u menga janona kerak"* mazmunidagi she'riga hamohangdir.

³ Faqiriy. She'rlar. – T: *"G'afur G'ulom"*. – 1972. – B. 17

⁴ O'sha manba. – B. 19

Shu nuqtayi nazardan Faqiriy ham o‘z millatdoshlarining – musulmonlarning – baxt-u saodati uchun yonib-kuygan shoir edi. Uning “Insof yo‘qoldi” sarlavhali she‘rida ham xalq boshiga jabr-zulm qilayotgan, mazlumlarning tirikligini og‘irlashtirayotgan ayrim mutaassib shaxslarga o‘zining chuqur nafratini “izhor etadi”:

Qozi-yu mufti, a‘lam,

Bir-biriga bo‘ldi hamdam.

Kesar mazlum boshini,

To‘kar qonin damo-dam⁵.

Adabiyotshunoslik ilmida sahli mumtane’ degan she‘riy san‘at mavjud. Bu san‘atning mohiyati qisqa va lo‘nda misralarda fikr ifodalashdir. Shoirning yuqoridagi misralari ham ham soddaligi bilan, ham ayrim badfe‘l amaldorlarga nafrat ila sug‘orilgan g‘oyasi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Taniqli o‘zbek shoiri Shavkat Rahmon aytganidek: “*G‘am so‘zin elimdan avvalroq aytdim, Baxt so‘zin aytaman eldan keyinroq*”. Darhaqiqat, shoir xalqning qalbida bitta og‘riq tuysa, uni hammadan oldin ayta olishi, atrofidagi millatdoshlari to‘la-to‘kis baxt-saodatga erishsagina o‘zini baxtli deb hisoblashi kerak.

Biz Abdurazzoq Faqiriy lirikasini pand-nasihat ruhida sug‘orilgani bilan ham, insoniyatning baxt-u saodatini tarannum etganligi bilan ham betimsol bir ijod sifatida baholashimiz mumkin.

⁵ O‘sha manba. – B. 8